

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“BUXGALTERIYA HISOBII VA AUDIT” FAKULTETI

“BUXGALTERIYA HISOBII ” KAFEDRASI

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

Kafedra mudiri, prof. Xolbekov R.O.

«_____» _____ 2011 yil

**OATB “O'zsanoatqurilishbank”ning Chirchiq filialida mehnatga haq to'lash
bo'yicha xodimlar bilan hisob kitoblar hisobi va auditi mavzusida yozilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“HIMOYAGA TAVSIYA ETILADI”

Ilmiy rahbar: dots. Pulatov M.E.

«_____» _____ 2011 yil

**Bajardi: «Buxgalteriya hisobi va
audit» yo'nalishi bitiruvchi**

4-kurs talabasi Ergashev

Abdujalil Ismatullaevich

«_____» _____ 2011 yil

TOSHKENT – 2011

MUNDARIJA

Kirish	3
1-Bob. Tijorat banklarida modernizatsiya qilish davrda mehnatga haq to'lashning tizimlari va hisobinini tashkil ilish	8
1.1. Tijorat banklarida modernizatsiya qilish davrda mehnatga haq to'lashning shakllari va tizimlari mazmuni.....	8
1.2 Tijorat banklarida mehnatga haq to'lash hisobining nazariy asoslari	13
2-Bob. OATB “O'zsanoatqurilishbank”ning Chirchiq filialida mehnatga haq to'lash bo'yicha xodimlar bilan hisob kitoblar hisobining tashkil qilish	17
2.1 OATB “O'zsanoatqurilishbank”ning Chirchiq filialida mehnatga haq to'lash bo'yicha xodimlar bilan hisob kitoblar hisobini tashkil qilish	17
2.2 OATB “O'zsanoatqurilishbank”ning Chirchiq filialida mehnatga haq to'lash hisobining sintetik hisobi.....	19
2.3 OATB “O'zsanoatqurilishbank”ning Chirchiq filialida ish haqidan ushlanadigan ajratma va to'lovlar hisobi.....	27
3-Bob. OATB “O'zsanoatqurilishbank”ning Chirchiq filialida mehnatga haq to'lash bo'yicha xodimlar bilan hisob kitoblar auditini tashkil qilish	38
3.1 OATB “O'zsanoatqurilishbank”ning Chirchiq filialida mehnatga haq to'lashning auditini tashkil qilishning maqsadi va vazifalari.....	38
3.2 OATB “O'zsanoatqurilishbank”ning Chirchiq filialida mehnatga haq to'lash bilan bog'liq operatsiyalari audit manbalari.....	47
3.3 OATB “O'zsanoatqurilishbank”ning Chirchiq filialida mehnatga haq to'lashning auditini takomillashtirish.....	50
Xulosa va takliflar.....	55
Foydalanilgan adabiyotlar.....	59

Kirish

Mavzusining dolzarbligi. Bu yil barchamiz ona yurtimiz, O'zbekistonimizning yangi tarixidagi eng buyuk va qutlug' sanalardan biri – Vatanimiz mustaqilligining 20 yillik shonli bayramini keng nishonlaymiz. Tabiiyki, bu bizdan barcha soha va tarmoqlarda amalga oshirayotgan keng ko'lamli islohotlarimizni atroflicha tahlil etib, kelgusi rejalarimizni aniq-ravshan belgilab olishni talab etadi.

Ayni shu holatni hisobga olgan holda, biz Vazirlar Mahkamasining bugungi kengaytirilgan majlisida ko'rib chiqiladigan asosiy vazifaning ijrosiga yanada katta mas'uliyat bilan yondashmog'imiz kerak. Ya'ni, 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlarini tanqidiy baholashimiz va shu asosda 2011 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlarini aniqlab olishimiz darkor.

Iqtisodiyotimizda 2010 yili yuqori o'sish sur'atlari ta'minlanib, aholining real daromadlari 123,5 foizga oshdi, o'tgan yilda inflatsiya darajasi 2009 yildagi 7,4 foiz o'rniga 7,3 foizni tashkil qildi. Bu avvalambor qat'iy, shu bilan birga, puxta o'ylangan pul-kredit siyosati va inqirozga qarshi ko'rilgan samarali chora-tadbirlarimizning natijasidir.

Aytish kerakki, bunday iqtisodiy o'sish ko'p jihatdan iqtisodiyotda soliq yukini pasaytirishga qaratilgan va izchil amalga oshirilayotgan siyosat bilan bog'liq. Jumladan, 2010 yilda yuridik shaxslar uchun daromad solig'i 9 foizgacha, miqrofirmalar va kichiq biznes uchun yagona to'lov 7 foizgacha tushirilgani buning amaliy tasdig'idir. Shu borada o'tgan yili Davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan oshirib, Ya'ni 0,3 foiz profitsit bilan bajarilganini ta'kidlash zarur.

Banklarning kredit va investitsiya faoliyatida ham ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. 2010 yilda iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kreditlarning umumiy hajmi 35 foizga ko'paydi. Shunisi e'tiborga loyiqki, 2010 yilning

oxiridagi holat bo'yicha ichki manbalar hisobidan berilgan kreditlarning tijorat banklari umumiy kredit portfelidagi yalpi ulushi 85,1 foizni tashkil etdi.

Tashqi qarzlar asosan uzoq muddatga, faqat iqtisodiyotning strategik tarmoqlarini modernizatsiya qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun jalb qilindi.

Banklarning kredit portfeli tarkibida ham sifat o'zgarishlari ro'y bermoqda. Umumiy kredit portfelida o'zoq muddatli, Ya'ni 3 yildan ortiq muddatga beriladigan investitsiya kreditlarining ulushi 2000 yilning oxiridagi 35 foizdan 2010 yilning oxirida 75,2 foizga o'sdi¹. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Demak, biz ushbu ustuvor vazifalarini respublikamiz tijorat banklardan biri bo'lgan, OATB "O'zsanoatqurilishbank"ning Chirchiq filialida buxgalteriya hisobini to'g'ri yuritish zarur. OATB "O'zsanoatqurilishbank"ning faoliyatda xizmat qilayotgan xodimlarning mehnatiga to'lanadigan mehnat haqlari va moddiy rag'batlantirish borasidagi hisob-kitoblar bo'yicha buxgalteriya hisobini va auditini tashkil etish hamda samarali tashkil qilish muhim ahamiyatga egadir.

Shu boisdan, ushbu vazifa va maqsadlar ayniqsa, OATB "O'zsanoatqurilishbank" faoliyatda mehnatga haq to'lash operatsiyalari hisobi va auditini to'g'ri tashkil qilish dolzarb vazifa hisoblanadi. Chunki OATB "O'zsanoatqurilishbank" xodimlari xizmatlari bo'yicha mehnat xaq-lari hisobini va auditini amaldagi tizmini amalga oshirish tufayli olib borilayotgan mehnat haqi hisob kitobi boshqaruv talablariga ayrim o'ziga xususiyatlarining o'zgarishlar tufayli muvofiqlashtirish zarurdir. Shuningdek, yuqoridagi bayon etilgan masalalarni ijobiy hal etish mazkur mavzu bo'yicha bitiruv malakaviy ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi va bitiruv malakaviy ishda aynan ushbu masalalarni yorish zaruriyatini belgilab beradi.

¹ Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. ("Xalq so'zi" 2011 yil 22 yanvar, № 16 (5183))

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Hozirda iqtisodchi olimlar tomonidan tijorat banklarida mehnatga haq to'lash bo'yicha xodimlar bilan hisob kitoblar hisobi va auditi bo'yicha ilimiy ishlarni qilgan olimlarimizdan Yu.M.Itkin, M.Q.Pardaev, N.Yu.Jo'raev, A.K.Ibragimov, B.A.Xasanov, A.Q. Qodirov, Sh.Z.Abdullaeva, F.T.Abduvaxidov, Z.A. Umarovlar ishlarida ko'rish mumkin. Shuningdek, MDH mamlakatlarining iqtisodchi olimlari Mamonova I.D., Sokolinskaya N.E. Voytova T.L. Kursov V.N., Yakovlev G.A. Klimovich V.P. Podol'skiy V.I., Savin A.A. Pugachyov V.V. N.P.Kondrakov, Z.V.Kir'yanova, S.A.Nikolaeva, A.D.Sheremet, O. Lavrushin, E.P. Kozlova, E.N. Galaginalarning ilimiy ishlarida ham banklarda mehnatga haq to'lash hisobi haqida fikrlarni uchratish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Tijorat banklarda mehnatga haq to'lash bo'yicha xodimlar bilan hisob kitoblar hisobi va auditini to'g'ri yuritish, daslabki xujjatlari hisobi va ular to'g'risidagi hisobotini rasmiylashtirish hamda hisobot ma'lumotlarni audit tekshiruvini olib borishi, xolisona baho berish maqsadida ichki auditorlik tekshiruvlarini tashkil etish masalalarini o'rganish, shuningdek, bozor munosabati, iqtisodiyotni erkinlashtirish talablaridan kelib chiqqan holda uni takomillashtirish bo'yicha fikr-mulohazalar berishdan iboratdir.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni bajarish belgilandi:

- OATB "O'zsanoatqurilishbank"ning Chirchiq filialida mehnatga haq to'lash bo'yicha xodimlar bilan hisob kitoblar mazmuni, mohiyati va vazifalarining nazariy asoslarini o'rganish;

- OATB "O'zsanoatqurilishbank"ning Chirchiq filialida mehnatga haq to'lash bo'yicha xodimlar bilan hisobi kitoblar hisobi va auditining uslubiy asoslarini tahlil qilish;

- OATB "O'zsanoatqurilishbank"ning Chirchiq filialida mehnatga haq to'lash bo'yicha xodimlar bilan hisobini tashkil qilishning hozirgi holatni o'rganish va mavjud bo'lgan muammolarning o'rganish;

- OATB “O’zsanoatqurilishbank”ning Chirchiq filialida mehnatga haq to’lash bo’yicha xodimlar bilan hisobga olish tartibining o’zga xos xususiyatlarini o’rganish;

- OATB “O’zsanoatqurilishbank”ning Chirchiq filialida mehnatga haq to’lash bo’yicha xodimlar bilan hisob kitobini qayta ruyxat qilish tartibi o’rganish;

- OATB “O’zsanoatqurilishbank”ning Chirchiq filialida mehnatga haq to’lash bo’yicha xodimlar bilan hisob kitobning auditini soddalashtirish;

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. OATB “O’zsanoatqurilishbank”ning Chirchiq filialida mehnatga haq to’lash bo’yicha xodimlar bilan hisob kitoblar hisobi va auditining huquqiy-me’yoriy asoslari, shuningdek, uning uslublarini amaldagi qonunlar va me’yoriy hujjatlar doirasida takomillashtirish hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining ob’ekti. OATB “O’zsanoatqurilishbank”ning Chirchiq filiali hisoblanadi.

predmeti, OATB “O’zsanoatqurilishbank”ning Chirchiq filialida mehnatga haq to’lash bo’yicha xodimlar bilan hisob kitoblar hisobi va auditining huquqiy-me’yoriy asoslari, shuningdek, uning uslublarini amaldagi qonunlar va me’yoriy hujjatlar doirasida takomillashtirish hisoblanadi.

Ilmiy yangiliklar. Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat: OATB “O’zsanoatqurilishbank”ning Chirchiq filialida mehnatga haq to’lash bo’yicha xodimlar bilan hisob kitoblar hisobi mazmuni, mohiyati va vazifalarining nazariy asoslarini o’rganildi:

- OATB “O’zsanoatqurilishbank”ning Chirchiq filialida mehnatga haq to’lash bo’yicha xodimlar bilan hisob kitoblar hisobi auditining uslubiy asoslarini tahlil qilindi;

- OATB “O’zsanoatqurilishbank”ning Chirchiq filialida mehnatga haq to’lash bo’yicha xodimlar bilan hisob kitoblar hisobini tashkil qilishning hozirgi holatni o’rganildi va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan fikrlar berildi;

-OATB “O’zsanoatqurilishbank”ning Chirchiq filialida mehnatga haq to’lash bo’yicha xodimlar bilan hisob kitoblar auditi tekshiruvining o’ziga xos xususiyatlari o’rganildi;

-OATB “O’zsanoatqurilishbank”ning Chirchiq filialida mehnatga haq to’lash bo’yicha xodimlar bilan hisob kitoblar hisobini kayta ruyxat qilish tartibi o’rganildi;

-OATB “O’zsanoatqurilishbank”ning Chirchiq filialida mehnatga haq to’lash bo’yicha xodimlar bilan hisob kitoblar hisobi va auditini soddalashtirib bilan izohlandi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur bitiruv malakaviy ishi natijalaridan Oliy o’quv yurtlarida ta’lim olayotgan iqtisodchi talabalarga tijorat banklarda buxgalteriya hisobi va audit fanlarini o’qitishda o’quv uslubiy qo’llanma sifatida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishida keltirilgan fikr-mulohazalarni OATB “O’zsanoatqurilishbank”ning Chirchiq filialida faoliyatiga tadbqiq qilish, shuningdek tijorat banklarda buxgalteriya hisobi va auditini yuritishga birmuncha yordam beradi deb o’ylaymiz.

Bu o’z navbatida, bank xodimlar bo’yicha mehnatiga haq to’lash, daromad soiqlarini hisoblash, ajratmalar ajratishdagi hisob kitob borasidagi ma’lumotlar buxgalteriya hisobiga ma’lumot sifatida olinishi va nazorat qilish ishini muvofqlashtiradi. Natijada buxgalterning ishdagi hisob samaradorligini oshirish uchun mavjud imkoniyatlardan foydalanishga zamin yaratadi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Kirish, 3 ta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati hamda ilovalardan iborat.

1-Bob. Tijorat banklarida modernizatsiya qilish davrda mehnatga haq to'lashning tizimlari va hisobinini tashkil ilish

1.1. Tijorat banklarida modernizatsiya qilish davrda mehnatga haq to'lashning shakllari va tizimlari mazmuni

Bizning bugungi asosiy vazifamiz jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi chuqur tus olgan bir sharoitda o'tgan 2009 yil yakunlarini tanqidiy baholash va shu asosda 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlarini belgilab olishdan iboratdir.

Shuni ta'kidlash kerakki, avvalo 2009–2012 yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasuri samaradorligini xolisona baholash muhim prinsipial ahamiyat kasb etadi.

Nega deganda, 2010 yilda va undan keyingi yillarda ushbu dasurni amalga oshirish jarayonida, zarurat tug'ilishiga qarab, unga tegishli o'zgartirishlar kiritishda ana shu tahlil xulosalariga tayanishimiz mumkin bo'ladi.

O'tgan yil yakunlari haqida gapirganda, 2009 yil biz uchun haqiqatan ham g'oyat qiyin bo'lganini aytib o'tirishga hojat yo'q, deb o'ylayman.

Shuni bugun katta mamnuniyat bilan ta'kidlashimiz kerakki, hukumatimiz tomonidan 2009–2012 yillarga mo'ljallab qabul qilingan Inqirozga qarshi dasurning inqiroz ta'sirini yumshatish va bartaraf etishda roli va ahamiyati katta bo'ldi.

Dasur o'ziga qamrab olgan, o'z vaqtida qabul qilingan hujjatlarda avvalo mamlakatimiz moliyaviy-iqtisodiy, budjet, bank-kredit tizimining barqaror hamda o'zluksiz ishlashini ta'minlash, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarga yordam ko'rsatish, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarning puxta ishlab chiqilgani o'zining amaliy samarasini berdi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz².

² Karimov I.A. Asosiy vazifamiz –vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada oshirishdir. “Xalq so'zi” gazetasi, 2010 yil 30 yanvar, 21-soni.

Tijorat banklarda mehnatga haq to'lash hisob kitobini hisobga olish va qo'shimcha haqi hisoblashning ma'lum tartibini belgilash zarur. Demak, tijorat bankda mehnatga haq to'lashni tashkil etish biri-biriga bog'liq bo'lgan uchta elementlar bilan aniqlanadi: tarif tizimi, mehnatni normalashtirish va mehnatga haq to'lash shakllari. Sifat jihatidan mehnat tarif tizimi bilan baholanadi, sarflangan mehnat miqdori normalashtirish bilan hisobga olinadi, mehnat haqi hisoblash tartibi esa mehnatga haq to'lash shakllari bilan aniqlanadi.

Xodimlar mehnatiga haq to'lashda tarif setkasi asos bo'lib hisoblanadi. Tarif setkasi ishlovchilarning malakasi, mehnatga haq to'lash shakli va mazkur sohaning ahamiyatini inobatga olgan holda tuziladi. Tarif tizimiga quydagilar kiritiladi:

- bir soat yoki bir kunlik mehnatiga to'lanadigan haq miqdorini belgilovchi tarif stavkasi;
- haq to'lashda ish va xodimlarning (malakasi) turli razryadlari orasidagi munosabatlarini ko'rsatuvchi tarif setkasi;
- tarif-malakaviy ma'lumotnoma. Uning yordamida tarif setkasiga binoan ish va xodimning razryadi aniqlanadi.

Oddiy ishlar 1-razryadli xodimning tarif stavkasi bilan to'lanadi. Mehnat malakasi darajasiga, ya'ni belgilangan tarif razryadi va tarif koeffitsientiga, qarab qolgan razryadlarning tarif stavkalari bu razryaddan ortiq bo'ladi. Tarif razryadi har bir ishlab chiqarish operatsiyasiga, har bir ish turiga tayinlanadi, shuning uchun ish bajarish normalarini hisobga olgan holda, ishbay ish haqini hisoblab topishda tarif stavkasidan foydalaniladi.

Mehnatga haq to'lash shakli, mukofotlar, qo'shimcha haqlar, rag'batlantirish to'lovlari, kasaba uyushma qo'mitasi bilan kelishilgan holda, ish beruvchi tomonidan qabul qilinadigan kollektiv shartnomasi bilan belgilanadi. Davlatning tarif stavkalari va okladlari bankda xodimlarning malakasiga, kasbiga, ular tomonidan bajariladigan ishlar sharoitining murakkabligiga qarab baza sifatida foydalanilishi mumkin.

O'zR Vazirlar maxkamasining 2000 yil 20 iyuldagi 280-sonli qarori bilan mehnatga haq to'lash bo'yicha yagona tarif setkasi qabul qilingan bo'lib, unda mehnatga haq to'lash bo'yicha razryadlar va 0-razryadga nisbatan tarif koeffitsientlari belgilangan. Tarif stavka va okladlar tizimi tuzilishini asosi bo'lib 0-razryadga belgilangan minimal oylik summasi hisoblanadi.³

Quyida 2000 yili Vazirlar Maxkamasining 20 iyuldagi 280-sonli qarori bilan qabul qilingan yagona tarif setkasi mavjud (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Mehnatga haq to'lash bo'yicha yagona tarif setka

Mehnatga haq to'lash bo'yicha razryadlar	Nolinchi razryadga nisbatan tarif koeffitsientlari	Mehnatga haq to'lash bo'yicha razryadlar	Nolinchi razryadga nisbatan tarif koeffitsientlari
0	1,000	12	5,386
1	2,181	13	5,727
2	2,400	14	6,071
3	2,641	15	6,423
4	2,904	16	6,779
5	3,181	17	7,140
6	3,471	18	7,505
7	3,773	19	7,877
8	4,086	20	8,253
9	4,401	21	8,635
10	4,723	22	9,019
11	5,050		

Xodimning mehnat haqi yoki oklad summasini aniqlash uchun nolinchi razryadning mehnatiga to'lanadigan summani mazkur xodimga belgilangan razryadning koeffitsientiga ko'paytirish kerak. Yuqorida keltirilgan yagona tarif setkasini byudjetdan moliyalashtiriladigan muassasalar, tashkilot va banklar qo'llashga majbur.

³ Jo'raev N., Xolbekov R., Abduvaxidov F., Ilxomov I. Buxgalteriya xisobi, iktisodiy taxlil va audit. Darslik. -T.: 2007 y

O'zining moliyaviy faoliyatini xo'jalik hisobi asosida yurituvchi barcha davlat, tijorat banklari va tashkilotlari mehnatga haq to'lashning yagona tarif setkasi asosida xodimlarning tarif-malakaviy razryadlarini belgilashlari zarur.

Tijorat banklarga yagona tarif setkasi asosida xodimlarning tarif-malakaviy setkasini belgilab olish tavsiya qilinadi.

Tarif stavkalar va okladlar tizimini asosi bo'lgan nolinch razryadning minimal ish haqisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadi. Xususan nolinch razryadning minimal ish haqisiga va qonunchilik bilan belgilangan o'rtacha oy ish kunlarining uzunligiga (ish vaqtining o'rtacha oy fondi) qarab 1-razryadning soatlar tarif stavkalarining minimal o'lchami aniqlanadi. Chunonchi, nolinch razryadning minimal ish haqisi 49735 so'm va (40 soatlik ish haftasida) ish vaqtining o'rtacha oylik fondi 169,2 soat bo'lgan taqdirda soatlik tarif stavkasining o'lchami $293,94 \text{ so'm bo'ladi}$ ($49735 : 169,2$).

1-razryad stavkalarini mehnatga haq to'lash shakllari (ishbay xodimlar va vaqtbay xodimlar), shuningdek kasb guruhlari va ish turlari (uch guruh stavkalar) bo'yicha tabaqalashtirib bank mehnatga haq to'lash bo'yicha tarif setkasini ishlab chiqishi mumkin. Har bir bank moliyaviy imkoniyatlari va boshqa ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga qarab o'zining tarif koeffitsientlarini ishlab chiqadi.

Mehnatga haq to'lashni tashkil etishning asosiy elementi bo'lib, bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat yoki ma'lum tashkiliy-texnik sharoitlarida berilgan ish hajmini bajarishga sarflanadigan mehnat o'lchamini belgilovchi, mehnatni normalashtirish hisoblanadi.

Mehnatni normalash, mehnatni ilmiy asosda tashkil qilishning asosiy tarkibiy qismi sifatida, ishlab chiqarish normasini va vaqt normasini o'z ichiga oladi. Normal ish sharoitida belgilangan vaqt (soat, oy) birligida ishlab chiqarsa bo'ladigan normalashtiriluvchi mahsulot birligi (dona, metr, tonna)ning miqdori ishlab chiqarish normasi bilan belgilanadi. Vaqt normasi esa ma'lum tashkiliy-

texnikaviy sharoitlarda ish bajarish uchun zarur bo'ladigan vaqtni (min., soat) nazarda tutadi.⁴

Tijorat banklarida mehnatga haq to'lash shakl va tizimlarini mustaqil belgilash huquqi berilgan.

Mehnatga haq to'lashning ikkita shakli mavjud: ishbay va vaqtbay. Mehnatga ishbay shaklida haq to'langanda ish haqi, mahsulotning sifati, murakkabligi va ish sharoitini hisobga olgan holda, ishlab chiqarilgan mahsulot birligining miqdoriga bog'liq.

Vaqtbay shaklida ish haqi, xodimlar malakasi va ish sharoitini hisobga olgan holda, sarflangan (xaqiqiy ishlagan) vaqtning miqdoriga bog'liq.

Ishbay ish xaqi shakli xodimlarni, ilg'or tajribalardan foydalangan holda, mehnat unumdorligini oshirishga moddiy jixatdan qiziqtiradi. Mehnatga haq to'lashning bu shaklida ishlab chiqarilgan mahsulot sifatini qat'iy tekshirish zarur. Mehnatga haq to'lashning ishbay shakli quyidagi mehnatga haq to'lash tizimlariga bo'linadi: to'g'ri ishbay, ishbay-mukofat, akkord, ishbay-progressiv, egri ishbay tizim.

Mehnatga vaqtbay shaklida haq to'langanda ish haqi hisoblash bo'yicha asos qilib xodimning sarflagan vaqti va tarif stavkasi olinadi.

Vaqtbay ish haqi shakli ikki tizimdan iborat: mehnatga haq to'lashning oddiy vaqtbay tizimi va vaqtbay-mukofat tizimi. Oddiy vaqtbay tizimida ish haqi bevosita ishlagan vaqt miqdoriga bog'liq. Vaqtbay-mukofat tizimida oddiy vaqtbay tizimi bo'yicha hisoblangan ish haqiga qo'shimcha qilib bajarilgan ishning sifati, material, yoqilg'ilarni, tejalishi bekor turishlarni qisqarishi, mashina va agregatlarni to'xtovsiz ishlashi va boshqa ko'rsatkichlarga qarab mukofat hisoblanadi.

Mehnatni tashkil qilish shakliga qarab ishbay va vaqtbay shakllardagi mehnatga haq to'lashlar yakka va umumiy bo'lishi mumkin. Ish jarayonida kasblarni birga qo'shib olib borish, ijrochilarning birini ikkinchisiga bog'liqlik

⁴ Jo'raev N., Bobojonov O., Abduvaxidov F., Sotvoldieva D. Moliyaviy va boshqaruv xisobi. Darslik. -T.: 2007 y

zaruriyati bo'lsa, mehnatga haq to'lash umumiy bo'lishi mumkin.

Tijorat banklarida u yoki bu dastlabki hujjatlar shaklini qo'llash faoliyat xarakteri, mehnatni tashkil etish va unga haq to'lash tizimiga, shuningdek xizmat sifatini nazorat qilish usuliga bog'liq. Ish haqini to'g'ri hisoblash uchun barcha hujjatlarda quyidagi ma'lumotlar keltirilishi kerak: ish joyi (uchastka, bo'lim); hisoblash davri (sana); familiyasi, ismi, otasining ismi; tabel nomeri va xodimning razryadi; ish birligiga belgilangan vaqt normasi va baho, ish haqi summasi; xizmat ko'rsatish bo'yicha norma-soat miqdori hisobi bo'yicha aks ettiradi.

1.2 Tijorat banklarida mehnatga haq to'lash hisobining nazariy asoslari.

Ko'plab moliyaviy xarakteridagi muassasalarda xodimlar odatda o'zlariga berkitilgan bir xil texnologik operatsiyalarni bajaradi. Bunda bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat va ish xaqining hisobi smena yoki oy bo'yicha tuziladigan yig'ma qaydnomalarda yuritiladi.

Bunda asosiy hujjatga havola qilinadi. Mehnat va ish haqi bo'yicha birlamchi hisobga olish hujjatlari O'zRning «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonunining 9-moddasiga muvofiq quyidagi majburiy rekvizitlarga ega bo'lishi lozim⁵:

- hujjatning nomi;
- hujjat to'zilgan sana;
- hujjatni to'zayotgan tashkilot nomi;
- xo'jalik operatsiyasining mazmuni;
- xo'jalik operatsiyasini natural va pulli shaklda aks ettirish ko'rsatkichlari;
- xo'jalik operatsiyasini amalga oshirish va uni rasmiylashtirishning to'g'riligi uchun javobgar bo'lgan mansabdor shaxslarning nomi;
- ko'rsatilgan shaxslarning shaxsiy imzolari;

Vaqt va qilingan ishni xdsobga olish bo'yicha birlamchi hujjatlardagi qo'shimcha bandlar:

- tabel raqami;

⁵ O'zbekiston respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" Qonuni 30.08.1996 y. N 279-I

- xodimning razryadi;
- bank xizmatining muddatlari;
- sarf-xarajat hisobi ob'ekting kodi (bank xizmati, buyurtma, sarf-xarajatlar moddasi);
- bank xizmatning nomi;
- vaqt me'yori va bank xizmatining bahosi;
- mehnat haqining miqdori va me'yor bo'yicha ishga sarflangan soatlar soni bo'lishi mumkin.

Birlamchi hujjatlar rasmiylashtirilishi buxgalteriya tomonidan tekshiriladi va keyinchalik hisob-kitob uchun qo'llaniladi.

Banklarda sarflangan mehnat, bajarilgan ish va xizmatlar hamda ular uchun hisoblangan mehnat (ish) haqini hisobga olishda dastlabki xujjatlarning qator shakllaridan foydalaniladi.

Banklarda asosan vaqtbay va ish haqi to'langanligi va mehnat intizomini nazorat qilish, shuningdek vaqtidan foydalanish darajasini tahlil qilish maqsadida tabel' hisobi qo'llaniladi. Tabel' hisobi ish vaqtini hisobga olish tabeli (64 shaklda) da yuritiladi. Bank tizimida tabellarni umumiy bo'lim rahbari tomonidan olib boriladi. Tabelda bo'linmadagi barcha xodimlarning tabel' raqamlari izchil ravishda ko'rsatilib, ularning har kungi ishga chiqishlari, ishlagan soat miqdori kayd qilinadi. Ishga chiqmagan kunlar esa tabelda shartli belgilar, masalan, «T»- ta'til, «K»- kasal, «S»- sasbasiz va x.k. tartibda aks ettiriladi. Tabelda xar bir xodim bo'yicha oy oxiriga va boshiga foydalanilmagan dam olish kunlarining miqdori ko'rsatiladi. Mehnat va unga haq to'lash bo'yicha zarur ma'lumotlarni olish uchun tabelda ma'lumotlar xar bir xodim bo'yicha; lavozimi, maoshi, toifasi, tabel' raqami, sintaktik va analitik hisobi va haq to'lash turi ko'rsatiladi.

Tabel' hisobi ma'lumotlari xodimlarga mehnat (ish) haqi hisoblashda yagona asos bo'lib hisoblanadi. Xar bir xodimga tegishli haqini aniqlash uchun bajarilgan ishlarin hisobga olishga doir dastlabki xujjatlar xodimlar bo'yicha guruhlanadi..

To'lov davridagi haqni jamlash hisoblashuv to'lov vedomostlari (73 shakl) yoki mehnat haqi bo'yicha hisoblashuvlar daftari (44 shakl)da amalga oshiriladi.

Hisoblashuv to'lov vedomosti (mehnat haqi bo'yicha hisoblashuvlar daftari) mehnat haqi hisoblash va undan ushlanadigan chegirmalarni hisobga oladigan asosiy yig'ma xujjatdir.

To'lov vedosti ish vaqtini hisobga olish tabeli asosida xar bir xodimning mehnat haqi o'lchami belgilangandan sung tuziladi. Xuddi shunday 29896 hisob raqamida ish haqiga nisbatan hisoblangan ajratmalar hisobga olinadi.⁶

2-jadval.

Mehnat haqiga nisbatan hisoblangan ajratmalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi

№	Ko'rsatkichlar	Debet	Kredit
1	Nafaqa fondi 24.8 %	56102	29810
2	Bandlik fondi 0.2 %	56102	29812
3	Ijtimoiy sug'urta fondi 4.5 %	56102	29810
4	Hisoblangan ajratmalar MBdagi korschetdan o'tkazib berildi	29810, 29812	29810, 10301

Bank buxgalteriyasi tomonidan bir vaqtning o'zida ish haqidan pul ushlab kolish amalga oshiriladi, bu operatsiya 29896 hisobvaraqaasining shaxsiy hisobvaraqalarida hisobga olinadi va ular buxgalteriya schetlarida quyidagicha aks ettiriladi.

3-jadval.

Mehnat haqidan ushlanmalarning buxgalteriya hisobida aks ettirilishi

№	Ko'rsatkichlar	Debet	Kredit
1	Pensiya fondi 1%	29896	29810
2	Daromad soligi	29896	29806
3	Hisoblangan ajratmalar MBdagi korschetdan o'tkazib berildi.	29810, 29806	10301

⁶ O'z R. Tijorat banklarida buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi-T-2010y

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 2011 yil 1 yanvarda qabul qilindi. Unda soliq tizimi xar qanday davlatda davlat byudjetining kirish qismini to'ldiruvchi bosh manbai bo'lib hisoblanishi ko'rsatib o'tilgan. Bundan tashqari solig' mablag'larining bir yerga to'plash jarayonida iqtisodiy qiziqtirish, himoya qilish vazifalarini ham bajarilishi ta'kidlanadi.

2-Bob. OATB “O’zsanoatqurilishbank”ning Chirchiq filialida mehnatga haq to’lash bo’yicha xodimlar bilan hisob kitoblar hisobining tashkil qilish

2.1 OATB “O’zsanoatqurilishbank”ning Chirchiq filialida mehnatga haq to’lash bo’yicha xodimlar bilan hisob kitoblar hisobini tashkil qilish

O’zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga binoan xodim va xizmatchilarga mehnat haqi bir oyda kamida bir marta beriladi. Ayrim hollarda xodimlarning alohida kategoriyalari uchun O’zbekiston Hukumati tomonidan ish haqi to’lash bo’yicha boshqa muddatlar belgilanishi mumkin.

Oyning birinchi yarmiga ish haqi hisoblashning avansli va avanssiz tartibi qo’laniladi. Birinchi holda hodimga avans berilib oyning ikkinchi yarmiga ish haqi to’lanishda pirovard hisob qilinadi. Jamoa shartnomasini to’zishda avans miqdori ish beruvchi bilan kelishib olinadi. Avansning minimal miqdori tabelga binoan xodimning ishlagan vaqti bo’yicha tarif stavkasidan kam bo’lmasligi kerak.

Ikkinchi holda bank rejali avans to’lashning o’rniga oyning birinchi yarmi bo’yicha haqiqiy bajarilgan xizmatlar yoki ishlagan vaqti bo’yicha ish haqi hisoblaydi.

Avanslar oklad yoki tarif stavkasining, soliq chiqarilgandan so’ng, 40-50 foizi miqdorida hisoblanadi.⁷

OATB “O’zsanoatqurilishbank”ning Chirchiq filialida xodim va xizmatchilar bilan hisoblashishni rasmiylashtirish uchun foydalaniladigan hujjat bo’lib hisoblash qaydnomasi hisoblanadi. Quyidagi dastlabki hujjatlar ish haqi hisoblash qaydnomasi va hisoblash varaqalarini to’zish uchun asos bo’lib hisoblanadi:

- ish vaqtidan foydalanishni hisobga olish tabeli – asosida foydalanilgan vaqt yotadigan

⁷ O’zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi-T 23.09.2005 y. O’RQ-8-son Qonuni

-vaqtbay ish haqi va boshqa to'lovlarni hisoblash uchun foydalaniladi (bekor turishlar, tungi va ish vaqtidan ortiq ishlagani, vaqtinchalik ish qobiliyatini yo'qotgani va shu kabilar uchun to'lanadigan xaq);

- ish haqini yig'ib boruvchi qartochkalar – ishbay xodimlar uchun;
- barcha turdagi qo'shimcha haq va vaqtinchalik ish qobiliyatini yo'qotgani bo'yicha nafaqalar hisoblash buxgalteriya rascheti;
- o'tgan oy bo'yicha hisoblash qaydnomaslari – soliq ushlanmalar summasini hisoblash uchun;
- ijro varaqalari bo'yicha ushlab qolish uchun sud organlarining qarorlari;
- oynning birinchi yarmi uchun avans berish bo'yicha to'lov qaydnomalari;
- rejasiz avanslar berish bo'yicha kassa-chiqim orderlari va x.k.

Hisoblash qaydnomasi analitik hisob registri bo'lib hisoblanadi, chunki u har bir tabel' nomeri, xodimlar kategoriyalari, to'lov va ushlanmalar turlari bo'yicha tuziladi. To'lov qaydnomasi quyidagi ko'rsatkichlardan iborat:

-to'lov turlari bo'yicha hisoblandi – 29803 - Bank xodimlari bilan hisob-kitoblardagi to'lanishi lozim bo'lgan mablag'lar schetning kredit oboroti bo'yicha;

- to'lov va zachet turlari bo'yicha ushlandi va zachet qilindi 29803 schetning debet oboroti;

- qo'lga tegadigani yoki bankning oy oxiriga qarzi – 29803 schetning kredit sal'dosi.

Hisoblash qaydnomasining oxirgi ko'rsatkichi pirovard hisoblashish bo'yicha to'lov qaydnomasini to'zish uchun asos bo'lib hisoblanadi.⁸

OATB “O'zsanoatqurilishbank”ning Chirchiq filialida xodim va xizmatchilar bilan hisoblashishini rasmiylashtirishda bir qancha variantlar qo'llaniladi:

- hisoblashish-to'lov qaydnomaslarini to'zish yo'li bilan. Bunda ikki registr birlashtirilgan: hisoblash va to'lov qaydnomasi, ya'ni bir vaqtning o'zida to'lashga tegishli summa hisoblanadi va u beriladi (to'lanadi);

⁸ O'z R BHMS larga sharhlar to'plami. Toshkent 2010y

- hisoblash qaydnomasini to'zish yo'li bilan, to'lash esa to'lov qaydnomasi bilan amalga oshiriladi;

- har ish oyi uchun (hisoblandi, ushlandi, qo'lga tegadigani) «Ish haqi hisoblash» schyotlarini to'zish yo'li bilan. Bunga asosan ish haqi berish uchun to'lov qaydnomasi tuziladi.

Moliyalash manbaidan qat'iy nazar bankning mehnat haqi xarajatlari tarkibiga mehnatga haq to'lash bo'yicha qilingan barcha xarajatlar, jumladan qonun bo'yicha bank xodimlarning ishlamagan vaqti uchun hisoblangan o'rtacha ish haqi, rag'batlantiruvchi to'lovlar, kompensatsiya to'lovlari kiradi.

OATB "O'zsanoatqurilishbank"ning Chirchiq filialida yuqorida ko'rsatilgan mehnatga haq to'lash bo'yicha markaziy bank yuriqnomasi binoan tashkil qiladi, keyin har oyda hisobot davri foydasini kamaytirishga yo'naltiriladi. Mehnat haqi fondidan foydalanish ustidan nazoratni asosan bank rahbari olib boradi.

2002 yilning 1-oktyabridan boshlab, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, banklar va tashkilotlarning mehnatga haq to'lashga yo'naltiriladigan mablag'larini davlat tomonidan tartibga solish bekor qilindi. Bu o'z navbatida mehnat haqi fondidan foydalanish ustidan olib boriladigan ichki nazoratni kuchaytirishni taqozo etadi.

2.2 OATB "O'zsanoatqurilishbank"ning Chirchiq filialida mehnatga haq to'lash hisobining sintetik hisobi

OATB "O'zsanoatqurilishbank"ning Chirchiq filialida xodimlarga tegishli ish haqi, mukofat, nafaqalar hisoblashni amalga oshirish bilan bir vaqtda ushbu summalar bank buxgalteriyasida tegishli registrlarda hisobga olib boriladi.

Tijorat bank ochiq turdagi aktsiyadorlik tijorat bankining mijozlarga hamda faoliyat davomida olingan daromadning miqdoriga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash bank xarajatlariga o'tkaziladi. Bank mijozlarga xizmat ko'rsatish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlariga quyidagilar kiradi:⁹

⁹ Kursov V.N., Yakovlev G.A. Buxgalterskiy uchët v kommercheskom banke: Novye tipovye buxgalterskie provodki operatsiy banka: Ucheb. posob. — 10-e izd., ispr. i dop. — M.: INFRA-M, 2008. — 277 s.

-Tijorat banklarida qabul qilingan mehnatga haq to'lash shakllari va tizimlariga muvofiq bajarilgan narxnomalar, tarif stavkalari va lavozim maoshlaridan kelib chiqib hisoblangan amalda bajarilgan ish uchun ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan hisoblangan ish haqi, shu jumladan bajarilgan ishni hisobga olish bo'yicha dastlabki hujjatlarda nazarda to'tilgan rag'batlantiruvchi tusdagi to'lovlar;

-kasb mahorati uchun tarif stavkalariga va okladlarga ustamalar;

-ish rejimi va mehnat sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan kompensatsiya tusdagi to'lovlar, shu jumladan:

-xizmatlar jarayon jadvalida nazarda to'tilgan vaqtda, ishdan tashqari vaqtda, dam olish va bayram kunlarda ishlaganlik uchun tarif stavkalari va okladlarga ustamalar va qo'shimcha haq;

-kunlik xizmat rejimda ishlaganlik, kasblarni birga qo'shib olib borganlik va xizmat ko'rsatish talab va qismlarini kengaytirganlik uchun ustamalar;

-hukumat tomonidan tasdiqlangan xizmatlar ro'yxati bo'yicha og'ir, zararli mehnat va tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan ushbu sharoitlardagi o'zluksiz ish staji uchun ustamalar;

-Tijorat bank qurilishda, rekonstruktsiya qilishda va mukammal ta'mirlashda bevosita band bo'lgan, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda to'tilgan hollarda vaxta usuli bilan ishlarni bajarishgan xodimlar uchun ishning ko'chma va qatnov xususiyati uchun ustama;

-ishlamagan vaqt uchun haq to'lash:

-amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq navbatdagi va qo'shimcha ta'tillar, navbatdagi foydalanilmagan va qo'shimcha ta'tillar uchun kompensatsiyalar, shuningdek tibbiy ko'riklardan o'tish bilan bog'liq vaqt uchun haq to'lash;

-majburiy ta'tilda bo'lgan xodimlarga, asosiy ish haqini qisman saqlab qolgan holda haq to'lash;

-davlat vazifalarni bajarganlik uchun mehnat haqi to'lash;

-belgilangan tartibga muvofiq bankning ximatida qatnashuvchi xodimlar mehnatiga haq to'lash fondiga kiritiladigan to'lovlarning boshqa turlari.

Pul kredit siyosati komissiyasining 1996 yil 8 aprelda 12-10-51 nomerli OATB "O'zsanoatqurilishbank"ning Chirchiq filialida ish haqini berish tartibi asosida ish haqi beriladi.

Ma'lumki ish haqi haqiqiy ishlagan soatlarda beriladi, uni hisoblash esa shu shtat jadvalida belgilangan normadan kelib chiqqan xolda oy davomida erishilgan yutuklar va daromaddan kelib chiqib bank rahbariyati tomonidan markazlashgan xolda bank xodimlari oylik rag'batlantiriladi.

Ish haqi bilan birgalikda ish haqiga hisoblangan ajratmalar bank xarajatlariga (56102 hisob raqami ish haqi fondi) qo'shiladi.

Bizningcha mehnat va unga haq to'lash hisobini takomillashtirishning asosiy yunalishlaridan biri uning uslubiy asoslaridan biri bo'lgan buxgalteriya hisobini schetlar rejasidagi schetlarning tarkibi va joylashishini takomillashtirish orqali erishishi mumkin.

Buning uchun schetlar rejasidagi schetlarni quyidagicha joylashtirish maqsadga muvofikdir:

29800 «Boshqa pasivlar» schetidan

29812 «Bandlik fondi bilan hisob-kitoblar» schetidan keyingi bo'sh turgan 29814 schetni «Ijtimoiy sug'urta fondiga (0.7 %) bilan hisob-kitoblar» deb atash maqsadga muvofiqdir. Bu ajratmalar ayni paytda pensiya fondiga qilinayotgan 25% li ajratmalar bilan birgalikda hisobga olinmoqda.

Shuningdek schetlar rejasidagi 29896 «Har xil majburiyatlar» schetining tarkibi ham kayta ko'rish va unda hisobga olinayotgan operatsiyalarning iqtisodiy mazmunidan kelib chiqib ushbu schetlardan keyin bush turgan pozitsiyalar hisobidan schetlarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Bizningcha «mehnat haqi bo'yicha hisob-kitoblar» schetiga «29898» bo'sh turgan pozitsiyani berish zarur. OATB "O'zsanoatqurilishbank"ning Chirchiq

filialida xarajatlariga qo'shiladigan mukofot va ijtimoiy himoya bo'yicha beriladigan nafaqalar esa 29894 kodni berish mumkin.

Hisobvaraqlar rejasiga ushbu schetlarni kiritish ularning analitik informatsiyalar bilan ta'kidlash imkoniyatini oshiradi va boshqaruv apparatini ma'lumotlar bilan ta'minlash darajasini oshiradi.

Buxgalteriya hisobi jahon amaliyotida va hisob yuritishning xalqaro andozalarida jamlama hisob urniga Bosh kitob, deb ataluvchi hisob daftarlari, tafsiliy hisob urniga esa yordamchi kitob deyiladigan hisob daftarlari qo'llanadi.

Ushbu xolatda daftar deb hisobvaraqlar guruhi ataladi. Asosiy daftar bu bank moliya hisobotlarida (balans hisoboti, daromad va xarajatlar to'g'risidagi hisobot va boshqalar) ko'rsatiladigan hisob varaqlar guruhi.

Hisobvaraqlarda umumiy ma'lumotni kayd etadi, lekin mufassal axborot bilan ta'minlamaydi. Birlamchi buxgalteriya operatsiyalari yordamchi kitobda aks ettiriladi.

Unda hisobvaraqlar guruhi mufassal axborot beradi. Bosh kitobda esa birinchi navbat balans hisobvaraqlari bo'yicha jamlama ma'lumotlar qayd etiladi.

Yordamchi kitob hisobvaraqlariga nisbatan olganda asosiy daftar hisobvaraqlari nazorat hisob varaqlari vazifasini bajaradi. Yordamchi kitoblardagi yakuniy summalar xar kun oxirida, shuningdek oy oxirida yangi oyning birinchi kunidagi xolatga ko'ra ularning asosiy daftardagi nazorat yakunlari balansi bilan bir xil chiqishi kerak.

Asosiy daftar nazorat hisobvaraqlari ma'lumotlari yordamchi kitobdagi tegishli hisobvaraqlar yakuniy summalari bilan taqqoslanadi. Agar dastlabki yozuvlarda xato bo'lmasa, summalar teng chiqadi.

Asosiy daftar (jamlama hisob) balans hisobvaraqlari bo'yicha yordamchi daftar (tavsiliy hisob) hisobvaraqlari ma'lumotlari to'plami hisoblanadi.

Quyidagilar asosiy daftar (jamlama hisob) materiallari hisoblanadi:

- hisobvaraqlar qoldiqlarining kundalik balanslari;

-balans hisobvaraqlari bo'yicha oborotlar va qoldiqlar haqidagi jamlama ma'lumotlar;

-oylik, choralik va yillik sal'do oborot kaydnomalari;

-kassa kirimi va chiqimi bo'yicha kassa daftarlari;

-maxalliy byudjetga ajratmalar kaydnomasi.

Shaxsiy hisobvaraqlardagi yozuvlarni shu hisobvaraqlarini yuritish topshirilgan buxgalteriya xodimlari nazorat qiladilar. Bunda shaxsiy hisobvaraqlardagi hamma yozuvlar bankning vakolatli xodimlari nazoratidan o'tgan va operatsiyalar rasmiylashtirilayotganida ular imzolangan tegishli xujjatlarga mosligi, tegishli rekvizitlar va xujjatlarning summolari shaxsiy hisobvaraqlarga to'g'ri o'tkazilganligi tekshiriladi. Shaxsiy hisobvaraqlardagi yozuvlar debet va kredit bo'yicha xujjatlardagi yozuvlar summalarini bank ichida kelib tushgan xujjatlar bilan, shuningdek boshqa banklardan kelgan elektron to'lov xujjatlari bilan bandma-band solishtirish orqali tekshiriladi.

Bankning bir kunlik balansi axborot tegishli shaxsiy hisobvaraqlar bo'yicha o'tkazilgandan keyin tuziladi. Kundalik balans to'g'ri tuzilganligi aktiv va passiv bo'yicha qoldiqlar yakunlari (majburiyatlar+sarmoya) tengligini aniqlash orqali, «Kutilmagan vaziyatlar» hisobvaraqlari qoldiqlarining yakuni to'g'riligi esa, u avvalgi kun balansi yakuniga mosligi plyus kredit oborotlari yakuni minus balans tuzilayotgan kundagi debet oborotlari yakunini aniqlash orqali tekshiriladi. Balans aktivi balans passiviga teng. U quyidagilardan iborat bo'ladi: majburiyatlar hisobvaraqlari qoldiqlari plyus sarmoyani ifodalovchi hisobvaraqlar qoldiqlari.

Asosiy qo'shimcha buxgalteriya daftarlari, shuningdek kundalik balanslar va shaxsiy hisobvaraqlarda biron bir tuzatishlar qilinishiga yo'l qo'yilmaydi. Summalarni uchirib yozish va tuzatish, shuningdek o'chiruvchi suyuqliklardan foydalanib, tuzatishlar kiritish taqiqlanadi.

Demak, OATB "O'zsanoatqurilishbank"ning Chirchiq filialida mehnatga haq to'lashning analitik hisobi ish haqi hisoblash to'lov vedomostida, sintetik hisobi esa litsevovlarda yuritiladi.

Bank xodimi va xizmatchilar bilan mehnatga haq to'lash bo'yicha hisoblashuvlarning analitik hisobi to'lov vedomosti yoki mehnatga haq to'lash bo'yicha hisoblashishlar daftarida yuritiladi. Bu xujjatlar mehnat haqiga oid hisoblashuvlarni hisobga oladigan hisobvaraqlari, tabellari, jamgarma vedomostlari, registlar va shaxsiy schetlarga asosan tuziladi.¹⁰

Oyning birinchi yarmi uchun avans berishda to'lov vedomostidan foydalaniladi. Vedomostda xoimning nomi, familiyasi va otasining ismi uning tabel' raqami va avans summasi ko'rsatiladi. Mehnat (ish) haqi bo'yicha ishchi bilan hisoblashuvlarning sintetik hisobi 56102 «xodimlar bilan mehnat haqi bo'yicha hisoblashuvlar schetida yuritiladi»

56102 schetining kreditiga xoimlarga hisoblangan asosiy va qo'shimcha mehnat haqi, mehnat haqiga kirmaydigan (vaqtincha ishga qobiliyatsizlik, xomiladorlik uchun hisoblangan nafaqa, iqtisodiy rag'batlantirish fondi hisobidan berilgan mukofot, moddiy yordam va boshqalar) turli to'lovlar aks ettiriladi, debetida esa quliga berilgan, deponentga o'tkazilgan hamda ish haqidan ushlanib kolgan summalar aks ettiriladi.

OATB "O'zsanoatqurilishbank"ning Chirchiq filialida xodimlarga mehnat ta'tili uchun haq to'lash tartibi quyidagicha:

Mehnat ta'tili davrida urtacha oylik ish haqi quyidagi tartibda hisoblanadi:

Yillik mukofot pulining 1/12 qismi, (un uchinchi ish haqi) agar mehnat ta'tiliga qo'shilsa:

-1/12 qismi bir ishxonada kup ishlagan yillari uchun beriladigan mukofot puli;

-Mehnat ta'tili davrida olingan mukofot puli, mehnat ta'tili davridagi oylar soniga bo'linadi;

-Mehnat ta'tili davri to'liq 12 oy kabo'l qilinadi, teskari tartibda hisoblanadi. Hisoblangan bir oylik ish haqi summasi 25,4ga bo'linadi va mehnat ta'tiliga kuniga kupaytiriladi, shanba kunlari ham ta'til kunlariga qo'shiladi.

¹⁰ F.T. Abduvaxidov Tijorat banklarda buxgalteriya hisobi o'quv qo'llanma –TDIU- 2010 y

Masalan: 1 yanvar 2010 yildan 28 yanvargacha ishchi mehnat ta'tiliga chiqqan (muddat 24 ish kuni). 3.06.2009 y. 2.06.2010 yillar ish davri uchun 1 yanvar xolatida ishchining oylik maoshi 325 000 so'm (shu jumladan, qo'shimcha ish haqi), ko'p ishlagani uchun beriladigan mukofot puli 2010 yil uchun 300 000 sum 13 chi ish haqi 2010 yil uchun 625 000 so'mni tashkil qiladi.

2010 yil hisobida olingan mukofot pullari 4997600 sumni tashkil qildi, shu jumladan, oyma-oy:

$126800+310000+310000+310000+310000+164300+167600+384000+717600+538000+621300=4497\ 600$ sum.

24 ish kuni uchun mehnat ta'tili hisoblanadi.

$538\ 000+(428\ 890-49:12) + (1632000:12) + (4497600:12)=1406200-12 : 25,4$
 $\times 24 = 13287-12$

Mehnat ta'tili uchun hisoblangandan sung quyidagicha provodka beriladi.

I Dt 56102 mehnat ta'tili to'lovi.

Kt 29806 «Boshqa majburiyatlar»

II Dt 29896 «Boshqa majburiyatlar»

Kt 29810 «nafaqa fondi 4,5 %»

III Kt 29896 kasaba uyushma vzosni 1%

Kt 10101 Kassa.

Banklarda oy ish yakunlari bo'yicha yil davomida mukofotlashni amalga oshirish.

Mukofotlash ko'rsatkichlari, shartlari, miqdori va manbalari quyidagilardan iborat:

Mukofotlashning asosiy ko'rsatkichiga «Qishloq qurilish bank» ochiq turdagi aktsiyadorlik tijorat bank tizimida yil boshidan boshlab o'sib boruvchi natijalar bo'yicha daromad qilish kiradi.

OATB "O'zsanoatqurilishbank"ning Chirchiq filialida mukofotlashning qo'shimcha ko'rsatkichlari quyidagilar:

-bank bo'linmalar tomonidan hisobot davrida rejada belgilangan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi;

-bank bo'linmalar ishining umumiy natijasiga xar bir xodimning qo'shgan hissasini aloxida baholash.

Mukofotlashning asosiy ko'rsatkichi daromad oshishini hisoblash har oylik balansning asosiy ko'rsatkichlari asosida amalga oshiriladi.

OATB "O'zsanoatqurilishbank"ning Chirchiq filialida mehnat haqi fondi xarajatlar smetasining mukofotlash maqsadlari uchun muljallangan qismi xodimlarni oylik ish yakunlariga qarab joriy mukofotlashning manbaidir. Yil davomida joriy mukofotlash fondiga 12 oylik maosh miqdorida mablag' (ajratiladi) o'tkaziladi.

Mukofotlash ko'rsatkichlari, shartlari, miqdori va manbalari OATB "O'zsanoatqurilishbank"ning xodimlariga, ishchilariga taaluqli va bank aloxida olingan har bir muassasa faoliyatida erishgan ko'rsatkichlarni baholash uchun mo'ljallangan.

"O'zsanoatqurilishbank"ning ochiq turdagi aktsiyadorlik tijorat bank mukofotni tasdiqlash va hisoblash tartibi esa quyidagicha amalga oshiriladi:

Xodimlarga ularning haqiqatda ishlab bergan vaqti uchun, ishning umumiy ko'rsatkichlariga qo'shgan hissasi, faolligi va tashabbuskorligini hisobga olgan xolda mukofot to'lanadi.

Bunda, mukofotni hisoblash uchun haqiqatda berilgan vaqtiga ish haqini yozish uchun hisoblangan vaqti ham kiradi, shu jumladan:

mehnat, xizmat majburiyatlarini bajarish vaqti; xizmat safarida sarf bo'lgan vaqti; bankning topshiriqlarini bajarishga sarflangan vaqti; seminar, simfozium, konfirentsiyalarda katnashgan vaqt, shu jumladan: malaka oshirish oliygohlari yoki kurslarda o'qish vaqti; amaldagi qonunlar bilan ko'zda to'tilgan boshqa xollar.

Mukofotlash quyidagi xollarda amalga oshirilmaydi:

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik davri uchun; oliy va o'rta maxsus bilim yurtlarida sirtki bo'limida o'qish davri uchun, joriy mukofot xodimlarining lavozimi okladlariga (tarif stavkalariga) shuningdek, ustama va qo'shimchalarga qo'shib yoziladi; bir necha kasblarni birgalikda (bir vaqtda) bajarish (sovmesheniya) uchun; xizmat doirasini kengaytirish va ish hajmini oshirish uchun; vaqtincha ishga chiqmagan xodimning xizmat vazifalarini ham bajargani uchun; kechki vaqtda ishlagani uchun; yengil avtomashina xaydovchilariga ularning me'yorlangan ish kunlari uchun;

Qo'shimcha (ustama)lar (nadbavki): yuqori kasb maxorati uchun; shaxsiy ustama (rahbarning qaroriga muvofik belgilanadi).

Ishdan tashqari hamma dam olish kunlari, bayramda ishlagan ish kunlari uchun mukofot qo'shimchalarsiz, bir martalik yoziladi. Mukofotlash masalasini ko'rib chiqish uchun xar oylik majlis bayonnomasi asos bo'lib hisoblanadi. Mukofotlash xar oyda amalga oshiriladi.

OATB "O'zsanoatqurilishbank"ning Chirchiq filialida mukofot hisoblash va to'lash quyidagi buxgalteriya yozuvi orqali amalga oshiriladi:

Dt 31101 mukofot puli fondi

Kt 29896 boshqa majburiyatlar.

Dt 298996 boshqa majburiyatlar

Kt 10101 kassa schyotida aks ettiriladi.

2.3. OATB "O'zsanoatqurilishbank"ning Chirchiq filialida ish haqidan ushlanadigan ajratma va to'lovlar hisobi

"O'zsanoatqurilishbank"ochiq turdagi aktsiyadorlik tijorat banklarda xodim va xodimlarga hisoblangan ish haqidan byudjet va byudjetdan tashqari to'lovlar uchun ma'lum majburiy soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlar amalga oshiriladi.

Ayrim holatlarda O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksiga binoan umumiy qoidaga ko'ra, xodimning yozma roziligi bilan bunday rozilik bo'lmagan taqdirda esa - sudning qaroriga asosan ish haqidan ushlanmalar ushlab qolinishi mumkin. Bunda quyidagi holatlarda xodimning roziligidan qat'i nazar, mehnat haqidan ushlab qolinadi:

- O'zbekiston Respublikasida belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish uchun;
- sudning qarorlari va boshqa ijro hujjatlarini ijro etish uchun;
- ish haqi hisobidan berilgan avansni ushlab qolish uchun xo'jalik ehtiyojlariga, xizmat safarlariga yoki boshqa joydagi ishga o'tganligi munosabati bilan berilgan bo'lib, sarf qilinmay qolgan va o'z vaqtida qaytarilmagan avansni ushlab qolish uchun hamda hisob-kitobdagi xatolar natijasida ortiqcha to'langan summani qaytarib olish uchun.¹¹

Bunday hollarda ish beruvchi avansni qaytarish yoki qarzni to'lash uchun belgilangan muddat tamom bo'lgan kundan yohud haq to'lash noto'g'ri hisoblab chiqarilgan kundan boshlab bir oydan kechiqtirilmasdan avans yoki qarzni ushlab qolish haqida farmoyish berishga haqlidir. Agar bu muddat o'tib ketgan bo'lsa yoki xo'jalik ehtiyojlariga, xizmat safarlariga yohud boshqa joydagi ishga o'tganligi munosabati bilan berilgan avansning ushlab qolinishini asossiz yoki miqdorini noto'g'ri deb hisoblasa, u holda qarz sud tartibida undiriladi;

-o'z hisobidan xodim ta'til olib bo'lgan, ish yili tugamasdan turib mehnat shartnomasi bekor qilinganda ta'tilning ishlanmagan davriga tegishli kunlari uchun. Ana shu kunlar uchun haq xodimning o'qishga kirganligi yoki pensiyaga chiqqanligi munosabati bilan bekor qilinganda ushlab qolinmaydi;

- xodim tomonidan ish beruvchiga yetkazilgan zararni qoplash uchun, agar yetkazilgan zararning miqdori xodimning o'rtacha oylik ish haqidan ortiq bo'lmasa;

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi-T 23.09.2005 y.

- mehnat intizomini bo'zganligi uchun o'rtacha oylik ish haqining 20% idan oshmagan miqdorda jarima.

Ish haqini to'lash vaqtida ushlab qolinadigan ushlanmalarning umumiy miqdori xodimga tegishli bo'lgan mehnat haqining ellik foizidan ortib ketmasligi kerak.

Xodim va xizmatchilardan ushlanadigan daromad solig'i amaldagi yo'riqnomada¹² belgilangan tartibda ushlanadi. Jismoniy shaxslardan daromad solig'i yagona shkala stavkasi bo'yicha yillik jamg'arma daromadidan ushlanadi:

-har bir fuqoroning soliq majburiyatining bazasi bo'lib o'tgan yili barcha manbalardan yig'ilgan daromad summasi hisoblanadi;

-oylik daromad oraliq daromad deb hisoblanadi;

-daromadlar miqdoridan qat'iy nazar soliqdan bo'tunlay ozod qilinadigan fuqorolar kategoriyasi nazarda to'tilmagan. Daromad miqdoridan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasining barcha fuqorolari, chet el fuqorolari va fuqorosi bo'lmagan shaxslar soliqqa tortiladi;

-agar fuqoroning banksidan oladigan ish haqidani tashqari chetdan yana boshqa daromadlari bo'lsa, har yili ish haqisini ham qo'shgan holda olingan daromadlarining umumiy summasi to'g'risida soliq inspeksiyasiga deklaratsiya topshirishi kerak.

Shuningdek, ushbu yo'riqnomaga muvofiq soliq to'lovchining asosiy ish joyidan olingan soliqqa tortiladigan daromadidan har oyda qonun bilan belgilangan eng kam oylik ish haqi summasi chiqarib tashlanmaydi. Jismoniy shaxslardan daromad solig'i yagona shkala stavkasi bo'yicha yillik jamg'arma daromaddan quyidagi jadval bo'yicha ushlanadi.

4-jadval

Jismoniy shaxslardan daromad solig'i yagona shkala stavkasi bo'yicha yillik jamg'arma daromaddan quyidagi tartibda ushlanadi

¹⁵O'z R moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining «Jismoniy shaxslarning daromadlaridan byudjetga soliq hisoblash va to'lash tartibi to'g'risida» gi yo'riqnomasi. 2010- yil

Soliqqa tortiladigan daromad miqdori	Soliq summasi
Eng kam ish haqining 5 baravari miqdorigacha	Daromad summasining 10 foiz
Eng kam ish haqining 5 baravaridan (+1 so'm) 10 baravari miqdorigacha	Eng kam ish haqining besh baravari miqdorida olinadigan soliq + olti baravaridan oshadigan summaning 16 foiz
Eng kam ish haqining 10 baravaridan (+1 so'm) va undan yuqori miqdoridan	Eng kam ish haqining o'n baravari miqdorida olinadigan soliq + o'n baravaridan oshadigan summaning 22 foiz

Daromad solig'i hisoblangan ish haqining bo'tun sonidan hisoblab topiladi. Jismoniy shaxslarning ish haqisi va boshqa daromadlaridan ushlangan daromad solig'i summasi bank tomonidan byudjetga o'z vaqtida va to'liq o'tkazib berilishi kerak.

Tijorat bank xodimlarning daromadlaridan davlat byudjeti foydasiga ushlangan soliq summalarini hisobga olish uchun "Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz (turlari bo'yicha)" passiv scheti qo'llaniladi. Bu schetning kredit qoldig'i bankning byudjetdan bo'lgan qarzini ko'rsatadi, debet oboroti – byudjetga o'tkazib berilgan summani ko'rsatadi; kredit oboroti – xodim va xizmatchilarning ish haqlaridan ushlangan soliq summasini ko'rsatadi.

Misol, OATB "O'zsanoatqurilishbank"ning Chirchiq filialida Jismoniy shaxslardan daromad solig'i yagona shkala stavkasi bo'yicha yillik jamg'arma daromaddan quyidagi buxgalter xodimga yanvar oyida 625 000 so'm ish haqi hisoblandi. Ushlanadigan daromad solig'i miqdori quyidagicha bo'ladi: Minimal ish haqi 49735 so'm.

$$1) 49735 \times 5 = 248675 \text{ so'm. } \times 11\% / 100\% = 27\,354 \text{ so'm}$$

2) 5 baravaridan oshgan summa $248675 \text{ so'm} \times 16\% / 100\% = 39\,788 \text{ so'm}$

3) 10 baravaridan oshgan summa $127650 \text{ so'm} \times 22\% / 100\% = 28\,083 \text{ so'm}$

4) jami ushlanadigan daromad solig'i miqdori $95\,225 \text{ so'm}$ ($27354 + 39788 + 28083$) ni tashkil etadi. Ushbu summaga quyidagicha buxgalteriya hisobi yozuvi amalga oshiriladi: Dt «Xodimlar bilan ish haqi bo'yicha hisoblashishlar» scheti 95225 so'm , Kt «Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar» scheti 95225 so'm . Mablag' o'tkazib berilganda, Dt «Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar» scheti 95225 so'm , Kt «Hisob-kitob» scheti 95225 so'm .

Ish haqidan Pensiya fondiga $4,5\%$ miqdorda ajratma hisoblanganda,

Dt «Xodimlar bilan ish haqi bo'yicha hisoblashishlar» scheti 28125 so'm ,

Kt 20205 «Byudjetdan tashqari fondlarning talab qilib olinguncha depozit» scheti 28125 so'm tarzida buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi.

Moddiy yordam, bank uchun berilgan rag'batlantirish va shu kabi summalaridan aliment summasi ushlanmaydi.

Kreditga sotilgan tovarlar bo'yicha ariza-majburiyatlarning hamma summasini bank bank krediti hisobidan savdo tashkilotlariga o'tkazib berganda kreditga sotilgan tovarlar bo'yicha ushlanma operatsiyalar sodir bo'ladi.

Shunday qilib, qisman ushlanmalarni o'nlab savdo tashkilotlariga o'tkazib berish uchun bankka to'lov-topshiriqlari yozish vaqti qisqaradi. Bu shakldagi hisoblashishlar uchun schetlar rejasida «Kreditga sotilgan tovarlar bo'yicha xodimlarning qarzi» scheti tayinlangan. Bu schet aktiv bo'lib uning qoldig'i bankga qaytarilmagan kredit bo'yicha xodim va xizmatchilarning qarzini ko'rsatadi; debet oboroti – bank krediti hisobidan bankning yana bergan topshiriq-majburiyat summasini ko'rsatadi; kredit oboroti – qarzni qoplash uchun xodim va xizmatchilarning ish xaqalaridan ushlangan summani ko'rsatadi.

Basharti xodim majburiyat summasini to'liq qoplamasdan boshqa bankga ishga o'tsa, bankga xodimning yangi ish joyini ko'rsatib xabar beradi. Bank shuningdek ssuda bo'yicha bank bilan to'liq hisoblashadi. Agar bank o'z xodimlarining kreditga sotib olgan tovarlari bo'yicha bank kreditidan

foydalanadigan bo'lsa, «Boshqa majburiyatlar» schetida savdo banklari bo'yicha shaxsiy schetlar ochadi.

Xodim va xizmatchilarning ish haqlaridan ushlanadigan majburiy ushlanmalardan tashqari ularning yozma arizalariga muvofiq ixtiyoriy ushlanmalar ham bo'lishi mumkin: ish haqini Xalq bankiga, sug'urta tashkilotlariga o'tkazib berish, kasaba uyushmalar badallarini to'lash, dalabog' uy va uchastkalarni qurish va obodonlashtirish uchun olingan ssudani qaytarish. Bunday hisoblashish muomalalari «Kreditga sotilgan tovarlar bo'yicha xodimlarning qarzi» va «Boshqa majburiyatlar» schetlarda hisobga olinadi.

OATB "O'zsanoatqurilishbank"ning Chirchiq filialida mehnatga qo'shimcha haq to'lash va ijtimoiy himoya qilish tartibi banklarda ishlab chiqaladigan «Mehnatga haq to'lash to'g'risidagi Nizom»da o'z aksini topishi zarur.

Xomiladorlik va tugish bo'yicha vaqtinchalik mehnatga qobiliyatsizlik varaqasi ishlovchi ayollarga jami 126 kalendar' kun muddatga beriladi. Tugish keyin, yoki ikki yoxud undan ortiq bola tugilgan xollarda vaqtinchalik mehnatga qobiliyatsizlik varaqasi 140 kalendar' kun mudatiga beriladi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, xomiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqalar barcha xollarda xodimning haqiqiy ish haqidan hisoblab chiqariladi.

Nafaqalarni hisoblashda asos qilib olinadigan haqiqiy ish haqiga ish joyidan, sug'urta badallari undirilib, tulanadigan jami ish haqi to'lovlari kiradi, ish haqi jamgarmasi hisobidan bo'lmagan bir marotaba tulanishi mumkin bo'lgan to'lovlardan tashqari. Sug'urta badali hisoblanmaydigan ish haqi turlari Vazirlar Maxkamasining 1994 yil 11 maydagi 249 sonli qarori bilan tasdiqlangan sug'urta badallari hisoblanmaydigan ish haqi turlari va boshqa to'lovlar turlari ruyxati bilan aniqlanadi.

Nafaqalarni hisoblab chiqarishda olinadigan ish haqining barcha turlari, shu jumladan mazkur oyda ish haqi bilan birgalikda tulanadigan oylikmukofotlari ularning haqiqatda olingan vaqti bo'yicha emas, balki ular hisoblab yozilgan vaqt bo'yicha ish haqiga qo'shiladi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik yoki xomiladorlik ta'tili boshlangan oydan oldingi 12 oy davrida olgan va sug'urta badallari chegirilgan barcha mukofotlarning 1/12 qismi, nafaqa hisoblab chiqariladigan oylik ish haqiga qo'shilib urtacha oylik, kunlik ish haqi miqdorida aniqlanadi.¹³

Agar xodim shtatdagi asosiy ishi bo'yicha tula tmansab maoshi olmasa va shu tufayli u usha yoki boshqa korxonada urindoshlik bilan ishlasa, nafaqa xar ikkila ish joyidagi umumiy ish haqidan hisoblab chiqariladi.

Agar vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik yoki xomiladorlik ta'tili ishning vaqtincha tuxtashi davrida belgilangan bo'lsa, ish tuxtagan davr uchun nafaqa ish tuxtagan davrda saklanadigan ish haqi miqdorida beriladi.¹⁴

Nafaqa oyiga bir marta vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik davridagi ish kunlarining to'g'ri kelgan oyning ikkinchi yarmida oladigan ish haqi bilan birga tulanadi.

Yillik (asosiy va qo'shimcha) ta'tilda bo'lish vaqtida, bolani parvarishlash uchun ta'tilda, xomiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'til berilganda, nafaqa xomiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'tilning vaqtincha qobiliyatsizlik varaqasida ko'rsatilgan barcha kunlari uchun beriladi. Bolani parvarishlash bo'yicha ta'til davri uchun nafaqa tarif stavkasidan (lavozim maoshidan) va ta'til boshlanishidan oldingi 12 oy mobaynida olingan mukofotlarning urtacha oylik summasidan hisoblab chiqariladi.

Bunda vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik varaqasiochilgan kuniga bo'lgan tarif stavkasi tumanlar hamda joylarda belgilangan ish bilan bog'liq olinadigan tuman koeffitsenti va ustamalarni hisbga olgan xolda olinadi.

Xomiladaorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa ish haqiniing 100 foizi miqdorida beriladi, nafaqa tayinlanganda ham 100 foiz miqdorda beriladi.

Xomiladorlik bo'yicha nafaqa berish uchun hisoblash quyidagi buxgalteriya provodkasi beriladi.

Dt 56114 «pensiya fondiga ajratma» scheti

¹³ O'z R BHMS larga sharhlar to'plami. Toshkent 2010y

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining belgilangan 155 moddasida –T 2005 y

Kt 29896 «har xil majburiyatlar» scheti

Kassadan berilganda esa:

Dt 29896 «har xil majburiyatlar» scheti

Kt 10101 «kassa»

Ishlayotgan ayollarga, shuningdek ishlab chiqarishdan ajralgan xolda oliy yoki urta maxsus ukuv yurtlarida, aspirantura, klinik ordiniturada yoxud xunar-texnika bilim yurtlarida, kadrlar malakasini oshirish, kayta tayyorlash ko'rsalarida va maqtablarida taxsil olayotgan ayollarga bola tug'ilganda beriladigan bir martalik nafaqa O'zbekiston Respublikasi xududida belgilangan oylik minimal ish haqining ikki baravari miqdorida beriladi va bu xolda bank xodimlari uchun ham tegishlidir.

Bolani onasi ishlaymaydigan va ukimaydigan xollarda nafaqa bolaning ishlaydigan yoki ishlab chiqarishdan ajralgan xolda ukiydigan otasi yoxud ota-ona urnini bosuvchi shaxslarga, ish haqi yoki stipendiyaning miqdordan kat'iy nazar tulanadi. Ishlaymaydigan va o'qimaydigan yolg'iz onalarga bola tug'ilganda nafaqa ijtimoiy ta'minot organlari orqali to'lanadi.

Farzandlikka olingan bolalarga bola tugilganda beriladigan bir martalik nafaqa umumiy asoslarda beriladi.

Agar ayol xomiladorlik bo'yicha ta'til davrida ishdan bushagan, shu davr mobaynida xomiladorlik va tugish bo'yicha nafaqa olgan bo'lsa, bir martalik nafaqa umumiy asoslarda beriladi.

Banklarda ham boshqa xo'jalik sub'ektlari kabi vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik uchun nafaqa to'lanadi va u quyidagi xollarda beriladi.

- vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotish bilan bog'liq kassalikda (shikastlanish);
- sanatoriya-ko'rortlarda davolanganda;
- kasallangan oila a'zosini parvarishlash zarur bo'lganda;
- qarantinda;

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasini tayinlashda fakat belgilangan tartibda berilgan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik varaqasi asos bo'ladi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa mehnat qobiliyati yo'qolgan birinchi kundan to u tiklangunga kadar yoki tibbiy mehnat ekspertiza komissiyasi (TMEK) tomonidan nogironlik belgilangunga qadar, xatto bu davrda xodim ishdan bushatilgan bo'lsa ham beriladi. Uzoq vaqt kasal bo'lganlarni TMEK ko'rigiga yuborish muddatlari vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik varaqasini berish tartibi to'g'risidagi qo'llanmaga binoan belgilanadi.

Ishdan bo'shatilganligining to'g'ri yoki noto'g'riligi masalasi to'g'risida nizo ko'rilyotgan davrda vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik boshlanganda nafaqa ishga tiklangandagina beriladi. Bunda mehnatga qobiliyatsizlik davri uchun nafaqa ishga tiklangan kundan boshlab barcha vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik kunlariga beriladi.

Yillik ta'til davrida kasallik tufayli vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik boshlangandan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik varaqasida ishdan ozod qilish ko'rsatilgan barcha kunlar uchun nafaqa oladi, beriladi.

Oilaning kasallikka chalingan a'zosini parvarishlash uchun ta'tilga chiqilganda, agar parvarishning yo'qligi bemorning xayoti yoki salomatligiga xavf solsa va agar uni kasalxonaga joylashtirish imkoniyati bo'lmasa, nafaqa beriladi.

Oilaning kasal bo'lgan a'zosiga qarish bo'yicha mehnatga qobiliyatsizlik varaqasi bemor birovning qarab turishiga muxtoj bo'lgan, lekin 7 kalendar' kundan oshmagan davr uchun beriladi.

14 yoshga yetmagan bemor bolaga qarash uchun vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik varaqasi bolaga parvarish kerak bo'lgan, ammo 14 kalendar' kundan ko'p bo'lmagan muddat uchun beriladi.

Quyidagi xollarda vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa berilmaydi:

- ishdan yoki boshqa vazifalardan buyin tovlash maqsadida o'z salomatligiga ataylab ziyon yetkazgan yoxud o'zini kasallikka solgan xodimlarga. Ularga ilgari to'langan nafaqa sud qarori asosida undirib olinadi;

- jinoyat sodir qilish vaqtida olingan jaroxatlar oqibatida boshlangan xodimlarning vaqtincha mehnatga qobiliyatsizligi;

- sud qarori asosida majburiy davolash vaqti uchun (ruxiy kasalliklardan tashqari);

- xibsda bo'lgan davr uchun va sud-tibbiyot ekspertizasi vaqti uchun.

Nafaqa miqdori kasallikning turlari, mehnat staji va kasaba uyushmasi a'zolicigini hisobga olib quyidagicha belgilanadi:

- ish haqining 100 foizi miqdorida: mehnatda mayib bo'lgan yoki kasb kasalligiga chalingan xodimlarga, umumiy staji 8 yil va undan ortiq bo'lgan xodimlarga;

Qaramog'ida 16 yoshga (o'kuvchilar 18 yoshga) yetmagan uch yoki undan ortiq bolalari bo'lgan xodimlarga;

Ishlayotgan ikkinchi jahon urushi katnashchilariga, baynalminal jangchilariga va imtiyoz jixatidan ularga tenglashtirilgan boshqa shaxslarga;

- ish haqining 80 foizi miqdorida: umumiy staji 5 yildan 8 yilgacha bo'lgan xodimlarga, 21 yoshga yetmagan ota-onasiz xodimlarga;

- ish haqining 60 foizi miqdorida: umumiy ish staji 5 yilgacha bo'lgan xodimlarga.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa, barcha xollarda, minimal ish haqidan kambo'lmasligi va nafaqa hisoblab chiqarilgan ish haqidan yukori bo'lmasligi lozim.

Nafaqa miqdori vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik boshlangan kungacha, mehnat daftarchasi yoki uning urniga berilgan boshqa xujjat asosida hisoblangan umumiy ish stajiga muvofik aniqlanadi.

Kasallik varaqasiga asosan nafaqa hisoblash uchun quyidagi provodka beriladi:

Dt - 56114 pensiya fondiga ajratma

Kt - 29896 xar xil majburiyatlar schyotlarda aks ettiradi.

3-Bob. OATB “O’zsanoatqurilishbank”ning Chirchiq filialida mehnatga haq to’lash bo’yicha xodimlar bilan hisob kitoblar auditini tashkil qilish

3.1. OATB “O’zsanoatqurilishbank”ning Chirchiq filialida mehnatga haq to’lashning auditini tashkil qilishning maqsadi va vazifalari

Mustaqil mamlakatimizda ushbu modelning tamoyillari asosida mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish bo’yicha har tomonlama va chuqur o’ylangan tadrijiy taraqqiyot dasturini izchil amalga oshirganimiz inqirozning, jahon bozoridagi keskin o’zgarish va beqarorlikning iqtisodiyotimizga, moliya va bank tizimiga salbiy ta’sirini sezilarli darajada kamaytirish imkonini berdi.

Mamlakatning jahon hamjamiyatiga uygunlashuvi bilan birgalikda kechmokda. Bu esa bank tizim boshqaruvda tub o’zgarishlarni, nazoratning tashkiliy tizimini, uslubiyotini va faoliyat ko’rsatishini takomillashtirishni talab qilmoqda. Xususan, mustaqil, tashki, davlat nazoratiga muqobil bo’lgan auditorlik faoliyatini iqtisodiyotni infrato’zilmasining ajralmas qismi sifatida rivojlantirish zaruriyati yanada kuchaymokda. Shu tufayli ham OATB “O’zsanoatqurilishbank”ning Chirchiq filialida mehnatga haq to’lashning auditini o’tkazish usul va uslubiyotlarini o’rganish bugungi kunning muxim shartlaridan biridir.

Auditning vujudga kelishi quyidagi shart sharoitlar bilan bevosita bog’liq ya’ni: ma’muriyat (axborot yetkazib beruvchilar) bilan davlat organlari, banklar, aktsiyadorlar va boshqalar (axborotlardan foydalanuvchilar) manfaatlarining mos kelmasligi va buning natijasida ular o’rtasida ziddiyatli vaziyatlar yuzaga kelganida ma’muriyat tomonidan noto’g’ri ma’lumotlar berilishi; noto’g’ri axborotlarga asoslangan xolda xo’jalik qarorlarining kabo’l qilinishi natijasida noqulay iqtisodiy axvolga tushib qolinishi yoki inqirozga yuz tutilishi; iqtisodiy axborotlarning haqqoniyligini tasdiqlash uchun zarur bilimlarga extiyoj;

axborotlardan foydalanuvchilarda ma'lumotlarni bevosita baholash va sifatini aniqlash uchun malaka yetishmasligi va x k.¹⁵

Bu shart sharoitlar ichki mustaqil ekspertlar xizmatiga bo'lgan bank jamoa extiyojining paydo bo'lishiga olib keldi. Shu ichki mustaqil ekspertlar maxsus tayyorgarlikka, malakasiga, tajribaga va shu turdagi xizmatni amalga oshirish uchun ruxsatnomaga ega bo'lishi talab qilinar edi. Auditorlik xizmati – bu vositachilik xizmati bo'lib, u moliyaviy axborotning haqiqiylikini tasdiqlash demakdir.

Auditorlik faoliyatini amalga oshiruvchi firma yoki tashkilot o'z faoliyatini o'zbekiston Respublikasi “Auditorlik faoliyati” to'g'risidagi qonun moddalariga asosan olib boradilar. Ushbu qonun o'z ichiga 29 ta moddani olib, ta'kidlangan moddalarda tashki iqtisodiy faoliyat bilan shugullanuvchi banklarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazish bo'yicha ham atroflicha fikolar bildirilgan.

Auditorlik faoliyatining ta'rifi o'zining tarixiy taraqqiyot yo'lida turli manbaalarda turlicha bayon qilingan. Umuman auditorlik faoliyati deganda auditorlik tashkilotlarining auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va boshqa professional xizmatlar ko'rsatish borasidagi tadbirkorlik faoliyati tushuniladi.

Respublikamizda davlat xokimiyati va boshqaruv organlariga auditorlik faoliyatini amalga oshirish qonun yo'li bilan taqiqlangan.

Auditorlik faoliyatining maqsad va vazifalaridan kelib chiqib uni quyidagicha tasniflash mumkin ya'ni, hisobot ma'lumotlarining ishonchliligini – birinchi navbatda buxgalteriya balansi (1-shakl), moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (o'shakl), shuningdek boshqa hisobotlarning ishonchliligi va unda keltirilgan ma'lumotlarning haqkoniyligini tasdiqlash (yoki tasdiqlamaslik) auditorlik xizmatining eng muxim vazifasi hisoblanadi.

Haqiqiy axborotning mavjudligi moliyaiy hisobning samaradorligini oshirishga imkon yaratadi hamda markaziy bakkning qarorlarning natijalarini baholash imkoniyatini beradi.

¹⁵ X.Qosimov va boshqalar Auditorlik faoliyati bo'yicha uslubiy qo'llanmalar to'plami –Toshkent 2010y 290-295 betlar

Auditor tekshiruvini majburiy bo'lmagan xollarda ham o'tkazish ahamiyatga ega. Bozor sharoitida banklarda, kredit berishlar va boshqa xo'jalik mulki, pul mablag'larini ishlatish, xizmat operatsiyalarini va investitsiyalarni jalb qilinishi bo'yicha shartnomaviy munosabatlarini amalga oshiradilar.

Bu munosabatlarning ishonchliligi albatta moliyaviy axborotlardan foydalanish imkoniyati bilan bog'liq. Axborotning aniqligini mustaqil auditorlar tasdiqlaydi.

Audit fani tijorat banklarni ta'sis etishda va uni boshqarish jarayonida vujudga keladigan hisobot, moliya va tahlilning uslubiy tomonlarini o'rgatadi.

Xususan, tijorat bankini rivojlanishiga salbiy ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash, foydalanilayotgan iqtisodiy imkoniyatlarni qidirib topish, ularni bank xizmatiga jalb etish, bankni raqobatbardoshligi darajasini oshirish, bank faoliyatini saqlash kabi uslubiy tomonlar shular jumlasidandir.

Bundan tashqari, audit banklarda buxgalteriya hisobotlarini rasmiylashtirishni tashkil etish, mavjud barcha moliyaviy resurslardan foydalanish, samaradorlikka erishish yo'larini aniqlash, bankning biznes faoliyatiga baho berish kabi masalalar yechimini ham o'rgatadi.

Umuman olganda bankning menedjerlar, marketing bo'limlari oldida turgan muommolar yechimini urganishda bu nazorati qo'l keladi. Chunki OATB "O'zsanoatqurilishbank"ning Chirchiq filialida mehnatga haq to'lashning auditi bo'yicha beriladigan hisobotlarni audit tekshiruvidan o'tkazish majburiyat tusiga kiradi. Shu jixatdan audit xizmatiga zaruriyat paydo bo'ladi.

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarida bank audit uzoq davrlardan beri mavjud bo'lib, bu tushuncha turlicha yoritiladi.

Angliyada audit deganda sub'ektlarning moliyaviy hisobotlarni tekshirish va bu to'g'risida o'zining mustaqil fikrini bildirish tushuniladi.

Buxgalteriya hisobi bo'yicha amerika Assotsiatsiya sining fikricha "audit bu voqea va xodisalar to'g'risidagi ob'ektiv ma'lumotlarni to'plash va baholi tizim jarayonidir.

O'zbekiston Respublikasining Auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonunida va Auditorlik faoliyati milliy standartining umumiy koidalarida ta'riflanganidek audit muayyan vakolatlar berilgan shaxslar tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy hisobotlarining to'g'riligini, ular amalga oshirgan moliyaviy xo'jalik jarayonlari O'zbekiston Respublikasi qonunlariga hamda boshqa me'yoriy xujjatlarga kaydarajada muvofikligini, mukammalligini va asoslanganligini, buxgalteriya hisob kitobi va boshqa moliyaviy hisobotlar yuritishga kuyiladigan talablarga hamda o'zga xujjatlar talablariga to'g'ri kelishligini aniqlash maqsadida o'tkaziladigan moliya xujjatlarining ekspertizasi va tahlilidir. Audit, shuningdek maslaxatni (konsalting) mijoz bilan shartnoma asosida xizmatlar ko'rsatishni o'z ichiga oladi.¹⁶

Auditor belgilangan tartibda auditorlik faoliyati bilan shug'ullanish xukukini olgan va auditorlarning kasb reestriga kiritilgan mutaxassisdir.

Audit bu bank moliyaviy hisobotlarini mustaqil ekspertiza qilishdir. Bunda buxgalteriya hisobini yuritish tartibini, saklanishini, bankning moliyaviy operakiyalarning O'zbekiston qonunlariga; bo'ysunishini, bankning moliyaviy hisobotlarda tulik va aniq aks ettirilganligini tekshiriladi. Ekspertiza oxirida auditorlik xulosasi tuziladi.

Tijorat banklarida ichki auditorlik faoliyati bu boshqaruv faoliyati bo'ysinib, u bankning moliyaviy hisobotlarini, to'lov hisob xujjatlarini soliq deklarakiyalarini va boshqa moliyaviy majburiyatlarni mustaqil tekshirishga qaratilgan faoliyatdir. Bundan tashqari ichki audit quyidagi faoliyatni amalga oshiradi:

- buxgalteriya hisobotlari va daromadlari to'g'risidagi deklarakiyalarni to'zish;
- bankning aktivlari va passivlarini baholash;
- moliya, soliq markaziy bank va boshqa xo'jalik qonunchiligi bo'yicha maslaxatlar berish;
- ichki auditor faoliyatiga bog'liq bir kancha ma'lum koidalar mavjud:
- ichki auditda auditorlarni erkin tanlashi;

¹⁶ O'zbekiston Respublikasining Auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonuni – T 2000 26-may

-bankning ichki audit ko'rsatilgan kamchiliklarni yo'qotmasdan turib, auditorlik xulosasini bermaslik;

-bank auditorlarga qonun va markaziy bankning tomonidan ko'rsatma berilgan audit va maslaxat xizmatlaridan tashqari bo'lgan bank tijorat va moliyaviy faoliyat bilan ug'ullanish ta'kiklanadi.

OATB "O'zsanoatqurilishbank"ning Chirchiq filialida mehnatga haq to'lash auditning maqsadi qonun tomondan belgilangan aniq vazifalarini bajarish, auditorlik faoliyatini me'riy tartibga solish majburiyatlarni bajarishdir.

OATB "O'zsanoatqurilishbank"ning Chirchiq filialida mehnatga haq to'lashning auditini faoliyatining asosiy maqsadi bu xizmat yuzasidan xodimlarning buxgalteriya hisobida mehnat haqlarining haqiqiylikini aniqlash va ular tomonidan amalga oshirilgan hisoblashish operatsiyalarini me'yoriy xujjatlarga to'g'ri kelishini tekshirishdan iborat.

OATB "O'zsanoatqurilishbank"ning Chirchiq filialida mehnatga haq to'lash bo'yicha xodimlar bilan hisob kitoblar bo'yicha ichki audit mehnat bo'yicha hisobotlarning to'g'ri tuzilganligi hamda quyidagilarni tekshirashdi:

- mazkur mehnatga haq to'lash hisob kitobining aniqligini ta'kidlash yoki ularning noaniqligi to'g'risida maslaxat berish;

-buxgalteriya hisobida mehnat haqi qarzlar, daromadlar va xarajatlari, bankning ish haqlari natijalarini tekshirilayotgan davrda tuliq aniq va haqiqiy ko'rsatilganligini tekshirish;

- mehnat haqi fondi tashkil etish bo'yicha hamda ish haqini hisoblash muomalarini va ajratmalar, viznoslar to'g'risidagi hisobotlarini to'zishni tartibga soluvchi qoidalarga, me'yoriy xujjatlarga hamda qonunchilikka amal qilinganligini, shuningdek ish haqi bo'yicha majburiyatlarini baholash usullariga rioya etilganligini nazorat qilish;

-OATB "O'zsanoatqurilishbank"ning Chirchiq filialida mehnatga haq to'lashning ichki auditidan yaxshiroq foydalanish bo'yicha takliflar berishdan iborat.

Ichki auditorning vazifalari biri shundayki OATB “O’zsanoatqurilishbank”ning Chirchiq filialida mehnatga haq to’lashning ma’lumotlar aniqligini auditorlik tekshiruvi orkali yoritishdan iboratdir.

Auditor bunda quyidagilarga: hisobotda xodimlar bo’yicha mehnatga haq to’lashning hisoblanganligi ko’rsatilganligi; hisobotda barcha xujjatlardan foydalanilganligi; haqiqatdagi ish haqi summalari va ulardan ushlab qolingani daromad soliqlar summasi va ijtimoiy sug’urta ajratmalari summasini hisoblash tartibini buxgalteriya hisobi siyosatida belgilangan usulidan qanchalik mosligi yoki farq qilishiga e’tibor qaratishi lozim.¹⁷

OATB “O’zsanoatqurilishbank”ning Chirchiq filialida ichki auditning asosiy maqsadga erishish va xulosa berish uchun quyidagi savollar bo’yicha o’z fikrini shakllantirish kerak:

- Ish haqi bo’yicha tuzilgan hisobotning bir-biriga mos kelishi ya’ni hisobotda umuman uning oldiga quyilgan talablarga javob berishi, hamda bir-biriga to’g’ri kelmaydigan axborotdan xolis bo’lishi;

- asoslanganlik ya’ni ko’rsatilgan summalarni hisobotga kiritish uchun asos borligi; (asosiy va qo’shimcha ish haqlari hisobotda ko’rsatilgan va ular balans tuzilgan kunda mavjud bo’lishi);

- yakunlanganlik ya’ni ish haqi hisobotiga hamma summalar kiritilganligi, shuningdek ish haqi fondiga bankga tegishliligi;

- baholash ya’ni asosiy va qo’shimcha ish haqi bo’yicha barcha mablag’lar to’g’ri baholangan va xatosiz hisoblanganligi;

- Turkumlash ish haqini ya’ni summalarni schetlar bo’yicha alohida-alohida ajratishning to’g’riligini;

- ajratish ya’ni ish haqi operatsiyalar amalga oshirilgan davrda ko’rsatilganmi;

- ichki audit mehnat haqi bo’yicha hisobni saranjomlik ya’ni analitik hisob-kitoblarda keltirilgan ma’lumotlarning aniqligi, ularning to’g’ri qo’shilganligi va

¹⁷ Tulaxodjaeva M va Mualliflar jamoasi «Audit» (darslik). Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti, 2008 y.

bosh kitobdagi ma'lumotlarga mos kelishi;

-ochib berish ya'ni mehnat haq to'lash hisobotiga hamma xodim va ish kategoriyalar kiritilgan hamda ular hisobotda to'g'ri ko'rsatilganligi.

OATB "O'zsanoatqurilishbank"ning Chirchiq filialida ichki auditorlik tekshiruvi kay tarzda va kanday tartibda o'tkazilishiga ko'ra majburiy hamda ixtiyoriy auditorlik tekshiruvlarga bo'linadi. Shuningdek auditorlik tekshiruvi nazorat qiluvchi yoki xukukni muxofaza qilish organlarining tashabbusiga ko'ra ham o'tkazilishi mumkin.

"Auditorlik faoliyati to'g'risida" gi qonunga muvofiq faoliyat turiga ko'ra quyidagi iqtisodiy sub'ektlar har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tkazilishi kerak:

-aktsiyadorlik jamiyatlari;

-banklar va boshqa kredit tashkilotlari;

-sug'urta tashkilotlari;

-investitsiya fondlari hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'larini jamlab turuvchi boshqa fondlar hamda ularning boshqaruv kompaniyalari;

-manbaalari yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari bo'lmish xayriya fondlari va boshqa ijtimoiy fondlar;

-mablag'larning xosil bo'lish manbaalari qonun xujjatlarida nazarda to'tilgan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qilinadigan majburiy ajratmalar bo'lmish byudjetdan tashqari fondler;

-ustav fondida davlatga tegishli ulush bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar.

Tijorat banklarda hisobot yilidan keyingi yilning 1 mayiga kadar yillik moliyaviy hisobotini auditorlik tekshiruvidan o'tkazmagan va auditorlik xulosasiga ega bo'lmasa, u majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishidan bo'yin tovlagan hisoblanadi.¹⁸

¹⁸ O'zbekiston Respublikasining Auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonuni – T 2000 26-may

Auditorlik tekshiruvi yakunlanganidan OATB “O’zsanoatqurilishbank”ning Chirchiq filialida mehnatga haq to’lash bo’yicha xodimlar bilan hisob kitoblar hisobi va auditi bo’yicha auditorlik xulosasining belgilangan tartibda tasdiqlangan bir nusxasini 15 kun ichida tegishli markaziy bankga va soliq organlariga topshirishi lozim. Agar auditorlik xulosasining bunday nusxasini soliq organiga o’z vaqtida takdim etilmasa, QQB bank soliq organiga buning sababi ko’rsatilgan tushuntirish xati takdim etadi. Majburiy auditorlik tekshiruidan bo’yin tovlagan sub’ektlarga soliq organlari tomonidan jarima solinadi.

OATB “O’zsanoatqurilishbank”ning Chirchiq filialida mehnatga haq to’lash bo’yicha xodimlar bilan hisob kitoblar hisobi va auditi haqida shikoyat qilishlari mumkin.

“Auditorlik faoliyati to’g’risida”gi qonunning 11-moddasiga muvofiq: tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvining yoki boshqa auditorlik tekshiruvi buyurtmachilarining qaroriga binoan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda o’tkazilishi mumkin.

Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvining predmeti, muddatlari va boshqa shartlari auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi bilan auditorlik tashkilotlari o’rtasida tuziladigan auditorlik tekshiruvini o’tkazish to’g’risidagi shartnomada belgilanadi.

Tashabbus tarzidagi (ixtiyoriy) auditorlik tekshiruvi odatda xujalik yurituvchi sub’ektning qaroriga ko’ra o’tkaziladi. Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi o’tkazishda xo’jalik yurituvchi sub’ekt o’z oldiga asosan quyidagilarni maqsad qilib kuyadi:

- buxgalteriya hisobini tashkil etishning amaldagi qonunchilikka muvofikligini aniqlash;

- buxgalteriya hisobining to’lik tizimini yoki uning ayrim bo’limlari ahvolini nazorat va tahlil qilish;

- buxgalteriya hisobi ishlarini yuritishni tashkil etish;

-buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va hisobot to'zish ishlarining me'yoriy ta'minlanganligini aniqlash;

